



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)

Tel.: 76-225-65-76


[www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)

## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024-yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2885,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,4 % ni tashkil etdi.



**B**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash




**C**

Ishlab chiqaradigan  
sanoat



**D**



Elektr, gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash



**E**

Suv bilan ta'minlash;  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Ishlab chiqaradigan sanoat – 10,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0% ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	87,1	144,9	57,8
Neft, ming t.	25,2	24,3	-0,9




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	10,8	9,6	-1,2
Tabiiy qumlar, ming t.	2,5	9,6	7,1

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-aprel

FHI,% da



2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2665,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,4 % ini tashkil etdi.


2023-yil -  
yanvar-aprel

91,8 %

2024-yil  
yanvar-aprel





92,4 %






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023-yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,0 % ( 0,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,2% ( 22,3 %) va quyi texnologiyalisi – 74,4 % ( 68,6 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 10,1 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,3 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 151,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 53,7 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,2 %), mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 7,1 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,6 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*






2024-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,6 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 2,9 martaga ga ko'p), 6,5 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (57,9 % ga ko'p), 0,9 ming tonna lint (0,2 % ga ko'p), 14,3 ming tonna neft bitumi (12,5 % ga kam) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	4,7	13,6	8,9
Paxta tiviti (lint), ming t.	0,7	0,9	0,2
Neft bitumi, ming t.	16,3	14,3	-2,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	15,5	12,3	-3,2
Yigirilgan bir qavatli, ming t.	2,7	3,4	0,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,1	1,2	0,1

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 115,6 bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 151,2 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 38,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 127,8 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 290,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,9 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 336,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 143,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 16,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 43,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 102,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 45,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 113,1 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1320,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 %, fizik hajm indeksi 114,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 227,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 173,6 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 225,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 19,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 74,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 101,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 220,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 71,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,6 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	32,8	70,0	37,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	12,3	8,4	-3,9
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	1,3	1,3

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	2,9	3,0	0,1
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	9,8	20,9	11,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 25,0 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,0 mlrd. so'm shuningdek, 20,9 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.